

JADIDCHILIK MAKtablari va ularning namoyondalarining O'zbekiston tarixiga qo'shgan hissasi

Kushbakova Noila Axmatovna

Samaraand viloyati Samarqand shahar 24-umumiyl o'rta ta'lim maktab 1-toifali tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilar harakatini o'rganishda olimlarning fikrlari xaqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, Turkistonda paydo bo'lgan jadidchilik harakati jadidchilik harakatining xalq maorif sohasiga ta'siri va insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi muhim o'ringa ega ekanligi haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, jadid, yangi usul, demoktarik harakat, "usuli savtiya", Ismoil Gaspirali, Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon.

Kirish: Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston"ning asosiy maqsad va g'oyalaridan biri-kelajak poydevori bo'lgan yoshlarni nafaqat huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, balki ma'naviy-madaniy, ijtimoiy va axloqiy yetuk, mustaqil fikrlovchi barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir.

Shu yurtda yashayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashni bugun zamonning o'zi taqozo qilmoqda. Ko'zlangan maqsadga milliy urf-odatlarimiz, an'analarimizni saqlab qolish, qadriyatlarga sodiq qolgan holda, zamonaviylikka erishish, boy tarixiy merosimizni chuqur o'rganish, qisqacha qilib aytganda, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish orqaligina erishishimiz mumkin. Zero, faqatgina ma'naviyat shaxsning, xalqning, millatning, davlatning, qolaversa, jamiyatning kuchi-qudrati, insoniyat taraqqiyoti va istiqbolini belgilovchi ijobiy ruhiy omil bo'lib xizmat qiladi.

O'tgan asrning boshlarida yashab ijod qilgan jadidchilik namoyondalari teran anglagan holda jamiyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, xalqni, ayniqlsa yoshlarni ilm-ma'rifikatga yetaklashni o'zlarining yuksak maqsadi qilib belgilagan. Ular yoshlar tarbiyasida diniy va dunyoviy bilimlarni bir-biridan ajratmasdan, milliy o'zlikni saqlagan holda zamonaviylikka erishishga harakat qilishgan.

Jadidchilik-ancha chuqur, murakkab, ziddiyatlari, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to'la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy harakatidir.

Aslida «jadid» so'zining ma'nosi «yangi» demakdir. Lekin u shunchaki «yangi», «yangilik tarafdoi» degani emas, balki «yangi tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Jadidchilik – davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan hamda aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyalar tizimi. Bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o'ynagan Turkistondek bir tarixiy o'lkada sharqona hayot tarzini saqlagan holda

uni G‘arb va Yevropa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko‘zlagan. Turkistonda jadidchilik g’oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o’lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o’ynadi. Jadidchilik Rossiyaga qaram bo’lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo’ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo’ldi. Ismoilbek Gaspirali 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o’qitish usuli «usuli savtiya», ya’ni «yangi usul» nomi bilan shuhrat qozondi. «Jadid» arabcha so’z bo’lib, «yangi» degan ma’noni bildiradi. Ismoilbek Gaspirali g’oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdarlari «jadidlar», uning g’oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o’zining «Tarjimon» (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ’ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.[1] Gasprali 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo’ldi. Buxoroda amir Abdulahad jadid maktabi ochishga ko’ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898 yilda To’qmoqda (Qirg’iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda SHamsuddin domla, 1901 yilda Qo’qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir SHakuriylar birinchi bo’lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alovida e’tiborga molikdir.[2] Mahmudxo’ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev, Abdulla Avloniy, Abdulkamid CHo’lpon va boshqa ziyorolar jonbozlik ko’rsatishdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko‘rishni orzu qilishdi, shu yo‘lda fidoyilarcha kurashishdi. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; dunyoviy ilmlarni, zamonaviy fan va texnikani egallab, taraqqiy topgan millatlar darajasiga ko‘tarilish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, qoloqlikka qarshi ma’rifat bilan kurashish, ana shu asosda hurriyatga erishish, Vatanning buyuk sha’nu shavkatini tiklash jadid ta’limotining o‘zak g‘oyasi hisoblanadi.

Mahmudxo’ja Behbudiyning «Zamona ilmu fanidan bebahra millat o‘zgalarga poymol bo‘lur», Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir», degan so‘zları bugun ham millatni uyg‘otuvchi da’vatdek jaranglab turibdi.

Ayrim muallimlar o‘zları darsliklar yozib, shu asosda ta’lim bergenlar. Saidrasul Saidazizov “Ustodi avval” (1902), Behbudi “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiya umroniy” (1905), Munavvarqori “Adibi avval”, “Adibi soniy” (1907), Abdulvohid Burhonov “Rahbari xat” (1908), Avloniy “Birinchi muallim” (1910),

"Ikkinch muallim" (1912), Rustambek Yusufbek o'g'li "Ta'limi avval", A.Ibodihev "Tahsilul alifbo" darsliklarini yozib nashr etishdi.[4]

Ma'lumki, shaxs ma'naviyati eng avvalo oila muhitida shakllanadi. Bugun oilada qanaqa muhit hukmronlik qilayotgan bo'lsa, ertaga shu oilada tarbiyalanayotgan farzand bevosita ana shu muhitning davomchisi sifatida ulg'ayadi. O'sib kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkurining kuchi shundaki, u aynan yoshlik davrida yon-atrofdan olgan taassurotlarini xotirasida saqlab qoladi.

Yoshlar ongiga kuchli ta'sir etuvchi axborotlar, yot g'oyalar, jumladan, diniy ekstremizm va terrorchilik, millatchilik, irqchilik, sadizmni G'arb hayat tarziga xos, o'zbek mentalitetiga zid odat va ko'nikmalarni targ'ib etadigan, G'arb yoshlarining kiyinishi, xulqini targ'ib qiluvchi maqolalar, filmlar, musiqalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan g'oyalardan diyorimiz ravnaqi – yoshlarni asrash bo'yicha amalga oshirish lozim bo'lgani eng asosiy ishlardan biri, bu — milliy kontentni ko'paytirish. Farzandlarimiz ongini bolaligidan boshlab to'g'ri shakllantirish ularni buyuk bobolarimiz merosi bilan tarbiyalash, qolaversa ularga ko'proq tarixni o'rgatishimiz maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha turli marafon, intellektual tadbirlar sonini ko'paytirish kerak.

Bundan tashqari, yoshlar ko'z oldida buyuk jadidchilarimiz portretini gavdalantirishimiz uchun san'at va madaniyat sohalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Inson ongiga sahma orqali yoki biror bir vaziyatni ko'rsatib berish orqali ta'sir qilish kuchi ko'proq va samaraliroq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida jadid bobolarimiz tomonidan ko'rsatilgan jonbozlik xalqning diniy bilim qatorida dunyoviy bilimni ham egallashi, ta'lim tizimining isloh qilinishi, o'g'il-qizlarga birdek dars berilishi uchun va xalqning Turkiston diyordagi mustamlakachilikdan, erksizlikdan qutulish uchun edi. Bu borada ular juda muvaffaqiyatli ishlar olib borishi, bir qancha maktablar ochildi. Bugungi global o'zgarishlar davrida birlashishimiz kerak. Ota-onalar, mahalla va oila jamiyati, maktabgacha ta'lim va xalq ta'limi tizimi birlashgan holda muammolarni bartaraf etish vaqtি keldi. Bunda asosiy mas'uliyat ota-onaga yuklatiladi, boisi, aksariyat holda 4-5 nafar farzandni dunyoga keltirib, ularni shaxs sifatida kamol topishi masalasiga bee'tibor bo'layotganlar soni ko'payib bormoqda. Chunki farzand darsga bormasdan pul topishni, onasiga ro'zg'or ishlarida yordam berishni o'ylay boshlagan go'yo. Aslida farzand o'z vaqtida to'g'ri ta'lim va tarbiya olishi eng asosiy maqsad bo'lishi kerak. Mazkur tamoyilni tushuntirish ota-onalarning vazifasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dolimov. U. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2010 yil, 1-sон.
2. Sh.G'affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 2000.

3. O'zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbatি materiallari. 1998 yil 9 oktabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.
4. Mo'minjon Muhammadjonov. Turmush urinishlari. Toshkent, 1926 yil, 277- bet
5. Ro'ziboyeva E'zoza Davlatboyevna Turkistonda ilk jadid maktablar shakillanishi va faoliyati.CONFERENSE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH-2023. 5-7-B.